

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI.**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



«BIRJA ISHI»

(Bakalavr yo'nalishlari uchun)

MA'RUZA MATNI

TOSHKENT 2012

Ushbu ma'ruzalar matnida Birja ishi fan sifatida, Birja ishi, turlari, birja ishi ularning tarkibi, usullari taxlil, global iste'mol bozorlari: strukturasi va strategiyalari, brokerlar ishi, ularning vazifalari, qaror qabul qilish jarayoni, ehtiyojlarni anglash va izlash, xarid oldidan variantlarni baholash, xarid qilish va qaror qabul qilish, iste'mol, ehtiyojlarni qondirilishi, foydalanilgan mahsulotlardan ozod bo'lish, fond birjalari, Tovar xom ashyo birjalari kabi mavzular batafsil bayon etilgan. Ma'ruzalar matni «Marketing» (qishloq xo'jaligi) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

B.X.Azizkulov - «Marketing, maxsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish» kafedrasida katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

B.Sultonov TIMI, «Iqtisodiy nazariya» kafedrasida dotsenti, I.F.N.

SH. Ernazarov Tosh DaU, «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Ma'ruza matni Marketing, maxsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish» kafedrasining 28. 10.2012 yil № 4 sonli, Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish va uni tashkil etish fakulteti o'quv-uslubiy komissiyasining 6.11.2012 yil № 2 sonli xamda Universitet o'quv-uslubiy kengashining _____ 2012 yil № ____ sonli qarorlari bilan chop etishga tavsiya etilgan.

MA'RUZA № 1

Mavzu: Birjaning paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va turlari. Reja

1. Birja tushunchasi, faoliyati va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Birjaning rivojlanish tarixi .
3. Respublikada birja turlari, ularning faoliyat yo'nalishlari.
4. Birjalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tutgan o'rni va ahamiyati.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. T.R.To'xtaboev. "O'zbekistonda birja savdolarining rivoji va istiqbollari" TDIU "O'quv qo'llanma" T-2007 yil. (5-22 betlar)
2. I.Butikov. "Qimmatli qog'ozlar bozori" "O'quv qo'llanma" T: "Konsauditinform" -2001 yil (14-59 betlar)
3. Tovar xomashyo birjalari savdolarida eksport-import bitimlarini amalga oshirish tartibi.
"Me'yoriy metodik qo'llanma" Respublika ko'p tarmoqli agrosanoat birjasi Toshkent – 2006 yil.
4. YO. Abdullaev "Qimmatli qog'ozlar"
Savol va javoblar. Toshkent "Mehnat" -1997 yil.
5. "Birjevaya deyatelnost" (Teksto' leksiy) Tosh DAU-2002 god. 6.
«Birja» iqtisodiy gazetasi.

1. Birja tushunchasi, faoliyati va o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekistonda izchil olib borilayotgan bozor islohotlari natijasida qadam-baqadam bozor iqtisodiyotining infratuzilmasi barpo qilindi. Jumladan mamlakatimizda birja savdolarining rivojlanishi va taraqqiyoti bobida e'tiborga loyiq bir qator ishlar amalga oshirildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur infratuzilmasisiz zamonaviy tovar ishlab chiqarish samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Chunki birjalar xomashyo, maxsulot ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning manvaatiga, ularning talablarini qondirish uchun xizmat qiladi. Tijorat faoliyatining mustaqil shakli bo'lgan birjalar tovar bozori infratuzilmasining muhim unsuri (elementi) hisoblanadi.

Xo'sh bozr iqtisodiyoti qonuniyatlari amal qiladigan har qanday iqtisodiy tizim va sharoitlarda bu qadar muhim ahamiyatga ega bo'lgan birja nima? Ularning faoliyati qanday tashkil etiladi va nimalarga asoslanadi.

Birja tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi. – Birja yuridik shaxs bo'lib oldindan tayinlangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida ommaviy va oshkora birja savdolarini tashkil etish va o'tkazish orqali birja tovarlari savdosi uchun shart-sharoit yaratuvchi sub'ekt.

Biz urganishni boshlayotgan “Birja ishi” fani ham bevosita ana shu birjalar faoliyatiga bog’liq bo’lib, hozirgi kunda Respublikamizda amal qilayotgan qonun hujjatlariga asosan quyidagicha ta’riflanadi.

“Birja ishi” – Birja ishi, birja savdolarini tashkil etish hamda talab va taklifning haqiqiy nisbatini aniqlash asosida birja tovarlarining narxlarini chiqarish orqali birja tovarlarining bozorini yaratishga qaratilgan harakatlar yig’indisidan iboratdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek tovar bozori infratuzilmasining muhim elementi hisoblangan birjalar faoliyatining asl mohiyatini yaxshi tushinib olish tuchun uning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarini bilib olishimiz muhim shartlardan hisoblanadi.

Birjalarning o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iboratdir.

- bozorda savdoning qayta-qayta takrorlanib turishi va tashkil etilishining muntazamligi;

- avvaldan o’rnatilgan ma’lum qoidalarga rioya qilish (har-bir birja o’z nizomi, o’z savdo qoidalariga ega va ularga qat’iy rioya qiladi);

- ma’lum bir joyga o’rnashib moslashganligi;

- tovarlarga standartlar o’rnatish;

- ma’lum bir xil (tip) shartnomalar ishlab chiqish;

- narxlarni kotirovkalash;

- mojaro-kelishmovchiliklarni bartaraf qilish-arbitrj;

- birjani axborot sohasidagi faoliyati;

- tovarning o’zi yo’qligida bitimlar tuzilishi;

- bitimlarning o’ziga xos xususiyatlari;

- muqobil sotuvchi va xaridor tomonidan amaolga oshiriluvchi ikki tomonlama auksion prinsipi;

- sifat jihatidan bir-birining o’rnini bosuvchi, ba’zida bir-biriga to’la mos keladigan bir xil xususiyatli tovarlar bilan savdo qilish.

2. Birjaning rivojlanish tarixi.

-O’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan birjaning paydo bo’lishi YAponiyada I asrga, Qadimgi Rimda I asrning oxiriga, Florensiyada esa XIII asrga to’g’ri keladi. XVI-XVII asrlarda yevropa mamlakatlarida birjalarning paydo bo’lishi ulgurji bozor faoliyati boshlanishiga olib keldi.

G’arb mamlakatlarida chop etilgan adabiyotlarda birja savdosining kelib chiqishi quyidagicha talqin etiladi, “Birja” so’zi lotincha bursa – hamyon so’zidan kelib chiqqan deb hisoblanadi. -Niderlandlarning savdo shahri bo’lmish Bryuggedagi savdo yig’ini maydoni yaqinida joylashgan “Burse” mexmonxonasi ham shu yerlik mashhur zadogon Van der Burse zoti nomi bilan atalgan Ushbu uchta hamyon tasviri tushirilgan tamg’a bilan bezalgan mexmonxonada savdogarlar boshpana topishar, tijorat xabarlaridan voqif bo’lishar va turli oldi-sotdi bitimlarini tuzishgan. Shu sababli birja so’zining paydo bo’lishini yuqorida qayd etilgan atama va xolatlarga ham bog’lanadi. Bir so’z bilan aytganda Birja – bevosita bozorga olib

chiqilmaydigan, hujjatlar bilan tasdiqlanadigan aniq sifat va miqdoriy hususiyatlarga hamda talab va taklif asosida rasman belgilanadigan narxlarga ega bo'lgan muayyan tovarlar bilan savdo qilish bo'yicha muntazam ravishda amal qiluvchi bozor sifatida yuzaga kelgan.

-Evropada 1531 yilda Antverpen, 1566 yilda London va 1608 yilda Amsterdam tovar birjalari tashkil etilgan.

Tovar birjalarining o'sishi ya'ni ularning faoliyat doiralarining kengayib borishi natijasida ularning safidan alohida birjalarning ajralib chiqishiga olib kelgan. Misol uchun fond birjasining paydo bo'lishi iqtisodchi olimlarning e'tirof etishlaricha ular dastlab tovar birjalarining yordamchi bo'limlari sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Oradan faqat 200 yil o'tib 1792 yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida jahondagi fond birjalarining eng yirigi – Nyu-York fond birjasi tashkil etilgan. Undan keyingina yevropaning qator davlatlarida ko'plab fond birjalari tashkil etila boshlangan. E'tiborli jihati shundaki faqat fond birjalarining rivojlanish bosqichi ikki yuz yil davom etgan. Birjalarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi ham juda qiziqarli jarayonlarni o'z ichiga olar ekan.

O'zbekistonda ham birja savdosi tamoyillaridan qadim-qadimdan foydalanib kelingan bo'lsada bu jarayon birja atamasi bilan atalmagan albatta. Misol uchun naqd pullik savdo shartnomalari, nasiya, va'da yoki ma'lum bir muddatdan keyin puli to'lanadigan savdo shartnomalari, hamda kim oshdi savdolari yuzasidan bitiladigan bitim shartnomalarini keltirizshimiz mumkin. -1925-1930 yillarda Markaziy Osiyo jumladan O'zbekiston xududida ham ko'plab tovar birjalari tashkil etilib faoliyat ko'rsatgan. Bunday birjalar Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Ashxobod va Frunze shaharlarida faoliyat ko'rsatganlar. -Ma'lumotlarga ko'ra 1924-1925 yillarda Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan birjalarning tovar aylanmasi 159,1 mln. So'mni tashkil etgani holda shundan 86,8 mln. so'mi yoki 54.6 foizi Toshkent birjasiga, 25.5 mln. so'mi yoki 16 foizi Buxoro, 18.2 mln. so'mi yoki 11.4 foizi Samarqand va 5.9mln. so'mi yoki 3.7 foizi Qo'qon birjasiga to'g'ri kelgan. Bu degani o'sha davrda Markaziy Osiyodagi birjalardagi jami tovar aylanmasining 85 foizdan ortig'i O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelgan. Mamlakatimiz xududida Srvet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng birja savdolari to'xtatilgan.

3. Respublikada birja turlari, ularning faoliyat yo'nalishlari.

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgach, iqtisodiy islohotlarning debochasi sifatida, sobiq Ittifoq xududida birinchilar qatorida tashkil etilgan Toshkentda "Toshkent" respublika universal tovar birjasi negizida "Toshkent" respublika fond birjasi, O'zbekiston Respublika tovar xomashyo birjasi, O'zbekiston Respublikasi universal agrosanoat birjasi va bir qancha tarmoq birjalari tashkil etildi.

1994 yilda O'zbekiston Respublikasi ko'chmas mulk birjasi tashkil etilib, hozirgi kunda uning Vatanimizning barcha viloyatlarida filiallari bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkni davlat tasarrufidan chiqarib, hususiyalashtirish va samarali boshqarishni tashkil etish va turli shakldagi korxonalar va muossasalar

bozorini tashkil etish hamda ular o'rtasidagi raqobatchilikni rivojlantirish vazifalarini hal etishda xizmat qilmoqda.

Albatta Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuvi jarayonining kengayib borayotganligi bilan birga respublikada birjalar faoliyati, ularning faoliyat doirasining kengayib borayotganligi kuzatilmoqda. Birjalarning faoliyat ko'lamini va namunaviy o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda biz hozirgi kunda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan asosan uchta turi faoliyati bilan tanishamiz. Bunda:

1. **“Tovar birjasi”** – O'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash asosida: savdo bitimlarini tuzish uchun vositachilik xizmatini bajaruvchi, savdo jarayonlarini tartibga soluvchi, narx o'zgarishlariga ta'sir qiluvchi ma'lumotlarni yig'ish, ularni chop etish, ishlab chiqarish va boshqa omillarni o'rganuvchi tashkilot. Tovar birjasida tovar va uni yetkazib berish shartnomasi bitim predmeti hisoblanadi.

2. **Mehnat birjasi.** Ishchilar va tadbirkorlar o'rtasida ishchi kuchi sotish va sotib olish bitimlarini tuzishni amalga oshiruvchi muossasa. Mehnat birjasi ishsizlarni hamda boshqa ishga o'tmoqchi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirishda vositachilik qiladi. Ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni va mavjud ishchi kuchi imkoniyatlarini o'rganadi, bo'sh ishchi o'rinlari to'g'risida ma'lumotlar berib boradi. Shuningdek mehnat birjasi ishsizlar sonini hisobga olib boradi va ularga ishsizligi uchun nafaqalar to'laydi.

3. **Fond birjasi.** – Qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar) savdo sotig'ini doimiy amalga oshiradigan va boshqariladigan bozor. Qimmatli qog'ozlar kursi talab va taklifga bevosita bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida qimmatli qog'ozlar uchun olinadigan daromad (dividend yoki foyda) miqdorining o'zgarishiga olib keladi.

Bundan tashqari alohida ta'kidlash lozimki respublikamizda keng va samarali uslublardan biri birja tizimida ko'rgazma yarmarka savdolarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ham katta va boy tajriba to'plangan bo'lib, savdolarni tashkil etishning ushbu turidan ham samarali foydalanilmoqda. YArmarka so'zining lug'aviy ma'nosi YAr-nemischa-yil, marka esa-tovar, mahsulot degan ma'noni beradi. Demak yarmarka har yili o'tkaziladigan tovarlar savdosi, degan xulosa qilishimiz mumkin. Vatanimizda ko'plab saqlanib qolgan me'morchilik yodgorliklari orasida karvonsaroylarni deyarli barcha shahar, hatto qishloqlarimizda ham uchratishimiz mumkin. YArmarka savdosini to'g'ridan-to'g'ri karvon savdosining taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan deyish mumkin.

Hozirgi zamonaviy adabiyotlarda “YArmarka” atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi. YArmarka savdosi: - Keng xalq iste'mol tovarlari va sanoat – texnika mahsulotlarini qisqa muddatli, vaqti-vaqti bilan qaytarilib turuvchi, oldindan namunalarni ko'rib, tanlab olish orqali amalga oshiriladigan hamda oldi-sotdi kontraktlari tuzish bilan yakunlanadigan ulgurji savdoning turidir.

4. Birjalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tutgan o'rne va ahamiyati.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlarini belgilab, Prezident I. Karimov 2006yil 10 fevral kuni Vazirlar Mahkamasining 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yildagi yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisda “Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim” deb nomlangan ma'ruzasida – “Bugun to'la ishonch bilan aytishimiz mumkinki, tadbirkorlarga, avvalo kichik biznes sub'ektlariga, asosiy, shu jumladan talab katta bo'lgan moddiy resurslardanfoydalanish imkoniyatini beruvchi barqaror bozor mexanizmi shakllandi ...” deb ta'kidlab o'tdilar.(1)

Shunday bozor mexanizmlarining muhim tarkibi bo'lgan birjalar va ularda o'tkazilayotgan birja savdolari ekanligini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Chunki Bugungi kunda kichik biznes sub'ektlarining tovar-moddiy resurslarga bo'lgan o'z ehtiyojlarining qariyb 70 foizini birja savdolarida qilinadigan xaridlari hisobidan ta'minlanmoqda. Birja savdolarida aylanma mablag'lar hajmi 2001-2005 yillar mobaynida 5.5 barobar ortgan. Hozirgi kunda ulgurji savdo aylanmasining uchdan ikki qismi birja savdolari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Vaholanki 2000 yilda bu ko'rsatkich atigi 8.5 foizni tashkil etgan. YUqorida keltirilgan raqamlardan ham ko'rinib turibdiki birjalarning mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak iqtisodiy islohotlarning ustivor yo'nalishi sifatida xususiy mulkchilik tarmog'inikengaytirish, biznes uchun qulay muhit yaratish va uning kafolatlarini mustahkamlash vazifalarini hal qilishga xizmat qiluvchi birjalar va ularda amalga oshiriladigan birja savdolarini rivojlanishi, uning samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Savollar:

1. Birja tushunchasi, faoliyati va o'ziga xos xususiyatlari qanday?
2. Birjaning rivojlanish tarixi?
3. Respublikada birja turlari, ularning faoliyat yo'nalishlari aniqlab bering?
4. Birjalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tutgan o'rne va ahamiyati qanaqa?

Ma'ruza № 2

Mavzu: Birja qonunchiligi

Reja:

1. Iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlantirishda qonunlarning tutgan o'rni va ahamiyati.
2. Birja qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va Birja ishi to'g'risida" gi qonuni.

Adabiyotlar ro'yxati

1. I. Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" Toshkent-1995 "O'zbekiston nashriyoti"
2. V. A. Chjen "Hususiylashtirish asoslari" Toshkent-1996 O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi nashri.
3. "Qimmatli qog'ozlar bozori" Toshkent-1996 (40-55 betlar) O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi nashri.
4. "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatishi mexanizmi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
5. T. R. To'xtaboev "O'zbekistonda birja savdolarining rivoji va istiqbollari" TDIU O'quv qo'llanma T-2007 yil (26-34 betlar)
6. Tvar xom-ashyo birjalari savdolarida eksport-import bitimlarini amalga oshirish tartibi.
- Me'yoriy metodik qo'llanma Respublika ko'p tarmoqli agrosanoat birjasi T-2006 yil.
7. "Birjevaya deyatelnost" Tekst leksiy ToshDAU-2002 god.
8. "Birja " iqtisodiy gazetasi.

1. Iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlantirishda qonunlarning tutgan hrni va ahamiyati.

Respublikamiz istiqbolga erishgan dastlabki kunlardan boshlab, o'zi uchun bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgan mustaqil taraqqiyot yo'lini aniqlash jarayonida Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan besh tamoyildan biri – "Qonun ustuvorligi" etib belgilanganligi va ushbu yo'nalishda qilingan katta mehnatlar natijasida mustaqillik davrida barcha bozor sub'ektlarining bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatilishlari uchun zarur bo'lgan barcha qonuniy (huquqiy) asoslarni yaratdi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning fundamental asarlaridan hisoblangan "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" deb nomlangan kitobida "Butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i zarur. Iqtisodiy o'zgarishlar sinalgan, amaliy kuchga ega bo'lgan qonuularga

tayangandagina bu o'zgarishlar muqarrar bqlishi va sezilarli natijalar berishi mumkin". Prezidentimizning ushbu fikrlaridan shuni anglab olishimiz lozimki – har qanday tizim iqtisodiyoti va uning barcha tarmoqlari ularga tegishli bo'lgan qonuniy asoslarsiz samsarali faoliyat ko'rsata olmaydi.

Shu sababli O'zbekistonda muhim bozor infratuzilmasi hisoblangan birjalar va ular faoliyatining mustahkam va jahon andozalariga javob bera oladigan qonunuiy asoslarni yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Birjalar faoliyatiga taalluqli bo'lgan qonunlar doimiy ravishda takomillashtirilib kelinmoqda.

"Birjalar va Birja ishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni mustaqillikning dastlabki yillarida, ya'ni 1992 yilning 2 iyulida qabul qilingan bo'lib, uning takomillashtirilgan yangi tahriri 2001 yilning 27 avgustida qabul qilingan. Shuningdek, yana bir asosiy qonunlardan hisoblangan "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 1996 yilning 25 aprelida qabul qilingan. Bir so'z bilan aytganda hozirgi kunda bevosita birjalar faoliyatiga taalluqli bo'lgan alohida qonunlar tizimi shakllantirilgan.

Alohida e'tibor berishimiz lozimki, bugungi kunda birjalar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga mamlakatimiz rahbariyati alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Misol uchun 1998-2006 yillar mobaynida aynan shu masalaga bag'ishlangan ikkita Prezident Farmoni, o'ndan ortiq Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan. Shuningdek, Birja ishiga taalluqli bo'lgan yuzlab me'yoriy hujjatlar tegishli vazirlik va idoralar (Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat Mulk qo'mitasi kabilar...) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular birjalarning qonuniy va samarali faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydi.

Bu borada amalga oshirilgan ishlar natijasida bugungi kunda Respublikamizdagi mavjud kichik va o'rta biznes sub'ektlarining tovar-moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarining **70 foizdan ortig'ini** birja savdolarida qilingan xaridlar hisobidan qoplamoqdalar.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra Respublikamiz bo'yicha birja savdolaridagi aylanma mablag'lar hajmi **2001-2005 yillarning o'zida 5,5 martaga ortgan**. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi ulgurji savdo aylanmasining **uchdan ikki qismi** birja savdolari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Vaholanki, bu ko'rsatkich **2000 yilda bor yo'g'i 8,5 foizini** tashkil etgan.

YUqorida keltirilgan dalillarimizdan **shunday xulosa** qilish mumkinki, bizning Respublikamizda birjalar faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilar ekan. Ushbu e'tiborning eng asosiy negizi bo'lib esa albatta qonunlarimiz xizmat qilar ekan.

2. Birja qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va Birja ishi to'g'risida"gi qonuni.

Endi bevosita O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va Birja ishi to'g'risida"gi qonuni to'g'risida to'xtalib, uning maqsadi va mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Qonun 27 ta moddadan iborat bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Qonunning maqsadi.
2. Birjalar va Birja ishi to'g'risidagi qonun hujjatlari.
3. Birja tushunchasi.
4. Birja ishi.
5. Birja ishini litsenziyalash.
6. Birja ishining davlat tomonidan tartibga solinishi.
7. Birja ishining asosiy prinsiplari.
8. Birja tovari.
9. Birja listingi.
10. Brokerlik o'rni.
11. Birjaning tashkiliy-huquqiy shakli.
12. Birja Ustavi.
13. Birjaning huquqlari.
14. Birjaning majburiyatlari.
15. Birjalarni tashkil etish va ular faoliyatidagi cheklashlar.
16. Birja a'zolari.
17. Birja a'zolarining huquqlari.
18. Birja a'zolarining majburiyatlari.
19. Birja a'zolarining umumiy yig'ilishi.
20. Birja savdolari.
21. Birja savdosi.
22. Birja bitimi.
23. Birja bitimi turlari.
24. Birja bitimi ishtirokchilari.
25. Hisob-kitob kliring xizmati ko'rsatish.
26. Nizolarni hal qilish.
27. Birjalar va Birja ishi to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik.

Mazkur qonunda ko'zda tutilgan deyarli barcha normalar to'g'risida, ya'ni ularning mazmuni hamda ishlash tartibi to'g'risida biz bundan keyingi darslarimizda batafsil to'xtalamiz.

Lekin biz bugun keyingi darslarni yaxshi o'zlashtirishimiz uchun ushbu qonunning ayrim bandlarini o'rganib, tahlil qilishimiz lozim bo'ladi.

1-modda. Qonunning maqsadi

- Ushbu qonunning maqsadi birjalarni tashkil etish va ular faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.*

2-modda. Birjalar va Birja ishi to'g'risidagi qonun hujjatlari

- Birjalar va Birja ishi to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.*

6-modda. Birja ishining davlat tomonidan tartibga solinishi

- Birja ishini davlat tomonidan tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda birjalar faoliyatini tartibga soluvchi vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Birjalar yoki ularning a'zolari tomonidan birjalar va Birja ishi to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda birjalar faoliyatini tartibga soluvchi **vakolatli organlar** aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida talab bilan ijro etilishi **majburiy bo'lgan ko'rsatmalar** kiritishga haqlidir.*

Birjalar faoliyatini tartibga soluvchi organlarning ushbu qonunning 14 va 15-moddalari talablarining buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmalarni birjalar bajarmagan taqdirda birjalar faoliyatini tartibga soluvchi **vakolatli organlar** birja litsenziyasining amal qilishini qonun o'ujatlarida belgilangan tartibda **bekor qilishga haqlidir.*.....**(man bo'yicha)

11-modda. Birjaning tashkiliy-huquqiy shakli

- Birjalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda tuzilishi mumkin.

Birja Ustav fondining birja ro'yxatga olingan sanadagi holatga ko'ra qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam oylik ish haqining 10 ming barobari miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas. (Hozirgi kun misolida oladigan bo'lsak, 20865 so'm x 10000q208650mln. so'm. Demak, * ...

13-modda. Birjaning huquqlari. - Birja:

- narx belgilash, hakamlilik, listing, nazorat va boshqa birja komissiyalarini tuzishga;
- agar birja bitimlarining narxi kun davomida birja tomonidan belgilangan qiymatdan ham ortiqroq o'zgarib ketsa birja savdosini to'xtatishga;
- birja tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun narx miqdorini belgilashga;
- birja savdosi qoidalarinibuzganlik uchun jarimalar hamda peniyalar belgilash va undirishga;
- birja axborotnomalari, ma'lumotnomalari hamda boshqa axborot va reklama nashrlarini chiqarishga;

Ustavda va boshqa qonun hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin.

14 modda Birjaning majburiyatlari. Birja:

- birja sadosi qoidalarini belgilash;
- birja axbototnomasiga kiritilgan birja tovarlari savdosini tashkil etish;
- birja tovarlariga bo'lgan talab va taklifning nisbati asosida ularning narxini chiqarib (e'lon qilib) turishga;
- muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) ommaviy axborot vositalarida birja tovarlari narxini e'lon qilish, birja a'zolarini har-bir birja savdosi yakunlari to'g'risida xabardor qilish kadilrdir.

Qonun hujjatlarida, birja Ustavi va birja savdolari qoidalariga muvofiq birjaning boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

15 modda Birjalarni tashkil etish va ular faoliyati sohasidagi cheklashlar.

Birja ishlab chiqarish, savdo, savdo vositachilik faoliyatini bevosita amalga oshirishi, shuningdek boshqa yuridik shaxslarning muassisi va aksiyadori bo'lishi mumkin emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Davlat hokimiyati boshqaruvi organlari birja muassisi (aksiyadori) bo'lishi mumkin emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Birja xodimlariga brokerlik urinlarini sotib olish, shuningdek xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.

Birjada:

- birja axborotnomasiga kiritilmagan tovarlarni birja savdolarida sotishga;
- birja savdolari ishtirokchilarining birjadagi joriy narxlar o'zgarishi yoki qat'iy qilib qo'yilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday kelishilgan hatti-harakatlarini sodir etishga;

- bozor konyukturasini sun'iy ravishda o'zgartirishga sababchi bo'lishi mumkin bo'lgan yolg'on ma'lumotlarni tarqatishga;

- birja a'zolari o'rtasida tuzilgan barcha bitimlarni birja savdolarini o'tkazmasdan turib ro'yxatga olishga yo'l qo'yilmaydi.

16 modda Birja a'zolari.

- Birja tomonidan belgilangan tartibda shu birjadagi brokerlik o'rnini sotib olgan yoki belgilangan tartibda bepul olgan yuridik shaxslar birja a'zolari hisoblanadi.

- Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ularning masabdor shaxslari shuningdek birja xodimlari birja a'zosi bo'lishlari mumkin emas.

Izoh Zaruriy hollarda qonunning har-bir moddasi va bandi bo'yicha qisqacha tushintirish (sharh) beriladi.*

Savollar:

1. Iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlantirishda qonunlarning tutgan o'rni va ahamiyati.

2. Birja qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va Birja ishi to'g'risida" gi qonuni.

3.5 bo'lim va bir nechta moddalarni aytib bering?

4. Brokerlar faoliyati qaysi moddaga kiradi?

Ma'ruza № 3

Mavzu: Birja tovari. Birjalarda olib boriladigan savdo jarayoni.

Reja

- 1. Birja tovari tushunchasi tovarlarini birjaga joylashtirish va savdolarga ruxsat etish tartibi.**
- 2. Birja savdolarini olib borish tartibi.**
- 3. Mintaqaviy bo'linmalardagi savdolarida ishtirok etish.**
- 4. Bitimlarni tuzish va ro'yxatga olish.**

Adabiyotlar ro'yxati.

1. T.R.To'xtaboev. "O'zbekistonda birja savdolarining rivoji va istiqbollari" TDIU "O'quv qo'llanma" T-2007 yil. (22-26 betlar)
2. I.Butikov. "Qimmatli qog'ozlar bozori" "O'quv qo'llanma" T: "Konsauditinform" -2001 yil (44 bob 328-339 betlar)
3. Tovar xomashyo birjalari savdolarida eksport-import bitimlarini amalga oshirish tartibi.
"Me'yoriy metodik qo'llanma" Respublika ko'p tarmoqli agrosanoat birjasi Toshkent – 2006 yil.
4. YO. Abdullaev "Qimmatli qog'ozlar"
Savol va javoblar. Toshkent "Mehnat" -1997 yil.
5. "Birjevaya deyatelnost" (Teksto' leksiy) Tosh DAU-2002 god.
6. «Birja» iqtisodiy gazetasi.

Birja savdolarining ob'ekti tovarlar tarkibini har-bir birja o'z ixtisoslashuvi va hususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil holda belgilaydi. YUqorida ta'kidlanganidek birja savdolari ob'ekti bo'lgan birja tovari tushunchasi to'g'risida gapirilganda ushbu tushunchaga ilmiy va o'quv adabiyotlarda turlicha ta'rif va tafsiflar berilgan. Albatta har-bir holatda ushbu masalaga yondashgan olim va amaliyotchilar o'z nuqtai nazaridan to'g'ri talqin etgan deyish mumkin.

Biz bu tushunchani aniq hujjatga ya'ni O'zbekiston Respublikasining «Birjalar va Birja ishi to'g'risida» gi qonunga asoslangan holda ta'rif beramiz.

Mazkur qonunning "Birja tovari" deb nomlangan 8 moddsida quyidagicha ta'rif berilgan: Birja tovari – Bu belgilangan tartibda birja savdolariga chiqarilgan muayyan tur va sifatdagi tovar shu jumladan tovarga doir standart kontrakt birja tovari hisoblanadi.

Er, yer osti boyliklari, suvlar, boshqa tabiiy resurslar, moddiy meros va intellektual mulk ob'ektlari, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolik

muomilasidan chiqarilgan mol-mulk birja tovari bo'lishi mumkin emas deb belgilab qo'yilgan.

Birja tovarlariga qo'yiladigan talab va asosiy shartlardan biri erkin narx belgilash bo'lib, bozor konyukturasiga bog'liq holda tovarlarga narx (ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa qator omillar) ni hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

Birja tovarlariga qo'yiladigan talablardan yana biri tovarlar sifatiga talablar qo'yish, transportirovka qilish, o'lchash saqlash shartlarini amalga oshirishdir. Bu tovar texnik ta'rif, standarti bqyicha namunalarni ko'rmasdan sotish mumkinligini ko'zda tutadi.

Standartlashtirish birja tovarining aslini aniq tovarlarga bo'lgan talab va taklifni vujudga keltiradi va eng yaxshi iqtisodiy natijalarga erishishga yordam beradi. Shunday qilib tovarlarning birja tomonidan o'rnatilgan standartlarga javob berishligi ularga qo'yilgan asosiy talablardan hisoblanadi. Shu sababli bir qator tovarlarning xususiyatlari ko'rsatkichlarini bir xil qilib belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Birja standartlari xaridorlar talabi asosida doimiy ravishda qayta ko'rib to'ldirilib ya'ni mukammallashtirib boriladi.

2. Birja savdolarini olib borish tartibi.

Birja savdolariga bitim tuzish huquqiga ega bo'lgan va bunday huquqqa ega bo'lmagan shaxslarga ruxsat etiladi. Bitim tuzish huquqiga faqat birja (a'zolari) xodimlari yoki ularning ishonch qog'ozi bilan faoliyat ko'rsatuvchi vkiller ega bo'ladi.

Bitim tuzish huquqisiz Birja ishini nazorat qiluvchi organlar vakillariga ruxsat etiladi. Bunga:

- birja boshqaruvi raisi va o'rinbosarlari;
- birjaning bosh makleri;
- seksiyalar va birjaning mintaqaviy bo'linmalari bo'yicha savdoni o'tkazuchi maklerlar.
- broker yordamchilari (har-bir brokerlik idorasidan faqat bir kishi);
- boshqaruv tomonidan ruxsat etilgan birja xodimlari;
- Respublika fond bozorini nazorat qiluvchi organning noziri.

Birja boshqaruvi raisi, uning o'rinbosarlari va nazorat qiluvchi nozir o'tkazilayotgan savdo jarayoniga tezkorlik bilan aralashishi, hatto ularni to'xtatib qo'yish va savdo sessiyasini yopib qo'yish huquqiga egadirlar.

Alohida ta'kidlash lozimki birja xizmatchilari o'z brekerlik idoralarini tashkil etishi va birja axborotlarini boshqalarga berish va yetkazish xuquqiga ega emaslar.

Savdo vaqtida savdo zalida ishtirok etayotgan birjaning maklerlar va brokerlar tarkibi QQ lar bozorini nazorat qiluvchi organ tomonidan berilgan maxsus shahodatnomalarga (litsenziyalarga) ega bo'lishi shart.

Savdolar birjaning operatsiya (savdo) zalida, mintaqalarda esa birjaning boshqaruvi tomonidan belgilangan joylarda o'tkaziladi. Qimmatli qog'ozlarning har-

xil turlari bo'yicha savdolar savdo zalining turli joylarida (savdo seksiyalari va maydonlarida) yoki bir joyda turli vaqtlarda o'tkaziladi. Ushbu savdo jarayonlari birja boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlangan maxsus dastur asosida amalga oshiriladi.

Savdolarida ishtirok etish uchun har-bir brokerlik idoralari belgilangan tartib va talablar asosida talabnomalarni birjaning tegishli bo'linmalariga topshiradi.

Boshqaruv tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq barcha talabnomalar qabul qilinganidan so'ng bo'lajak savdo sessiyasi uchun talabnomalar ro'yxati shakllanadi.

Ushbu ro'yxatga binoan brokerlar savdo boshlanishiga bir soat qolganida tegishli ruxsatnomalarni elektron yoki bosma shaklda savdo zali terminallaridan olishlari mumkin bo'ladi. Savdolar jarayonida savdo tizimiga kirish xavfsizligini ta'minlash uchun har-bir brokerga o'z shaxsiy parollari beriladi.

Savdo boshlanishiga bir soat qolganida birja xodimlari elektron tizimni tayyorlab uning ishga layoqatli ekanligini tekshiradi.

Ushbu vaqtda brokerlarga operatsiya zalida bo'lishi va birjaning malumotlar bazasida mavjud bo'lgan emitentlar xaqidagi malumotlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Savdo boshlanganligi xaqidagi elon eshiritilgandan keyin birja makleri elektron savdo tizimini ishga tushuradi. Bunda dasturga muvofiq makler movqeylarni birin ketin brokerlarga ko'rib chiqish uchun jo'natadi.

Har bir movqey uchun 15 soniya vaqt ajratiladi.

Bu vaqt ichida broker:

1. Taklif narxini pasaytirilishini so'rashi;
2. Savdoga qo'yilgan paketlarni qismlarga ajratishni so'rashi;
3. Elektron pochta tizimi orqali qo'shimcha axborot so'rashi.
4. Qimmatli qogozlarni xarid qilish uchun yoki sotish uchun talabnoma jo'natishi mumkin.

Agar 20 soniya davomida biror bir boshqa broker yoki brokerlik idorasidan talab noma kelib tushmasa makler bitimni qayd etadi. Bu jarayon savdo zali barcha mintaqaviy bo'limlardagi terminallarda shuningdek elektron birja lavxasida aks etiradi. Agar qo'rib chiqilayotgan mavqeyga 2 yoki undan ortiq talabnomalar kelib tushsa ular o'rtasida kim ochdi savdosi o'tkaziladi va eng yuqori narx taklif etgan broker golib bo'ladi.

3. Mintaqaviy bo'linmalardagi savdolarida ishtirok etish.

Birjaning mintaqaviy bo'limlarida faoliyat ko'rsatayotgan brokerlarga birinchi bo'lib ular qaysi mavqeini ishtirok etishliklarini bildirishi talab etiladi. Masul mutaxassis bunday talabnomani olgan dan keyin savdo vaqtida bosh maklarga savdo zaliga tegishli movqeylarni ko'rsatgan xolda so'rov noma yuboradi. So'rovnomaning olgan bosh makler savdo zalidagi va birjaning mintaqaviy bo'linmalardagi barcha brokerlik idoralariga movqeylar bo'yicha takliflar yuboradi. Ijobiy javob olingandan so'ng u so'ralgan movqeylarga o'tadi.

Mintaqaviy bo'linmalarda ishtirok etadigan brokerlik idoralari o'rtasida Kim ochdi savdosi yuzaga kelgan xolda ularning kelib tushish ketma ketligida amalga oshiriladi. Kim ochdi savdosi tadbiri esa savdo zalida ishtirok etadigan bosh makler tomonidan taynlanadi.

4. Bitimlarni tuzish va ro'yxatga olish.

Birja bitimlari bu birja savdosi natijasida brokerlik firmalari (idoralari, bitim) chek tuzishda birja boshqarmasi kengashining 16 sentyabr 1991 yilda tasdiqlangan «Birja savdosi qoidalariga» da ko'rsatilgan tartibda amal qiladi.

Birja bitimi birja yegilishida amalga oshiriladi, birja bitimlari faqat shaxsan birja a'zolari bilan emas shuningdek ularning nomidan ish olib boruvchi brokerlik idorasi a'zosi bilan xam tuzilishi mumkin. Birja bitimlari va birjada xarakatda bo'lgan tovar va qimmatbaho birligi uchun tuziladi. Birja savdosi qoidalariga muvofiq davlat buyurtmasi va Respublikalararo majburiyatlarni ta'minlash uchun yetkazilgan tovarlar xajmidan ortiqchasi birjalarda tadbirkorlarga erkin narxda sotish uchun ruxsat beriladi. Fond birjalarida bitimlar faqat qonunchilik, xususan amal qilayotgan qimmatbaho qogozlar to'grisidagi qo'llanmada mo'ljallangan tartib asosida chiqarilgan va xarakat qilayotgan aksiyalar va bolshqa qimmatbaxo qogozlar bilavn tuziladi. Ikki tomondan tuzilgan birja bitimlari ogzaki, yozma ravshda amalga oshirilishi mumkin. Bitim makler orqali tuzilganda yozma shaklda bitim tuzish shartdir.

Birja bitimining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- a) bitimni amalga oshirish joyi – birja yegilishida:
- b) birja sub'ektlari – birjaning a'zolari (doimiy va o'zgaruvchan)
- v) birja buyumi – tovarlar, qimmatbaxo kogozlar (kotirovka savdoda ishtrok etish uchun qo'yilgan)
- g) birja bitimlari faqat birjada tuziladi, lekin xar doim birjadan tashqarida amalga oshiriladi, chunki birjada tovarning o'zi bo'lmaydi.
- d) bitimni belgilangan muddat va tartibda ro'yxatga olish.

Birjadagi broker faoliyati jarayonida qo'llaniladigan xujjatlar va ularga berilgan qo'shimchalarda aks ettirilgan shartlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Birjadagi birja bitimlarining turlari

Tovarning nomi baxosi turgan yeri va bitimni amalga oshirish muddatidan tashqari birja bitimlarining mohiyati, tijorat siri hisoblanadi va uni tarqatish mann etiladi. Birja bitimlari turli xil bo'ladi. Birja bitimlari ikki katigoriyaga bo'linadi.

- Bor bo'lgan tovar bilan bitim tuzish (kassa bitimi yoki «SPOT»)
- Tez, darxol tuziladigan bitim «farvord bitimi»

Kassa bitimi – tez xal etilishi zarur bo'lgan bitim bo'lib, o'zining xuquqiy tabiati bo'yicha odatdagi oldi – sotdi shartnomasidir.

Tovar birjalarining quyidagi bitimlari mavjud

- xaqiqiy tovar bilan tuzilgan bitim

- ma'lum muddatga tuziladigan bitim
- kassa yoki SPOT bitimi
- kelasi muddatda yetkaziladigan tovarlar uchun kontrakt bitimi
- darxol yoki forward bitimi
- f'yuchers bitimi
- barter bitimi, shartli bitim
- mukofatga asosan tuziladigan bitim
- kredit bilan tuziladigan bitim, kredit berish asosida tuziladigan bitim

Bunday bitim tuzishda birja savdosi qoidalariga shartnomani bajarish muddati odatda oyning o'rtalarida, ikki oygacha deb mo'ljallanadi. Belgilangan muddatlarda tuzilgan bitimlar shu vaqtga kelib tugatish byurosi orqali tugatiladi tezkor bitim ob'ekti bo'lib ko'pincha qimmatbaho qogozlar hisoblanadi.

Tezkor bitimni shartli ravishda bir qancha turlarga ajratiladi.

1. Baxodagi farq hisobiga foyda olish uchun tuzatiladigan. U o'z navbatida report va dekort bitimlariga ajratiladi.

2. Arbitraj bitimlari.

Forward bitimlari qarzga tuziladigan bitimlar va barter bitimlariga bo'linadi. Eksportlarning baxolashlariga qaraganda barter bitimlari salmogi umumiy bitimlar miqyosida 60% ni tashkil etadi.

Savollar:

1. Birja tovari tushunchasi tovarlarini birjaga joylashtirish va savdolarga ruxsat etish tartibi?
2. Birja savdolarini olib borish tartibi qanday?
3. Mintaqaviy bo'linmalardagi savdolarida ishtirok etish?
4. Bitimlarni tuzish va ro'yxatga olishi qanaqa?

Mavzu: Birja tarkibi va Birja ishini boshqarish.

Reja

1. Fond birjasi bozor infratuzilmasining muhim muossasasi sifatida.
2. Toshkent RFB si, uning funksional va tarkibiy bo'linmalari (tuzilmalari).
3. Birja ishini boshqarish.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. I.Butikov. "Qimmatli qog'ozlar bozori" "O'quv qo'llanma" T: "Konsauditinform" -2001 yil (288-362 betlar)
2. V. A. Chjen "Xususiylashtirish asoslari" (162-190 betlar)
3. "Qimmatli qog'ozlar bozori" Toshkent – 1996 y. (30-34 betlar)
O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk Qo'mitasi nashri
4. YO. Abdullaev "Qimmatli qog'ozlar"
Savol va javoblar. Toshkent "Mehnat" -1997 yil.
4. "Birjevaya deyatelnost" (Teksto' leksiy) Tosh DAU-2002 god. 6.
«Birja» iqtisodiy gazetasi.

1. Fond birjasi bozor infratuzilmasining muhim muossasasi sifatida.

O'zbekistonda fond birjalari ya'ni QQB to'g'rismida so'z boshlashimizdan avval shuni aytish lozimki o'tgan bir necha o'n yilliklar davomida amal qilgan siyosiy va iqtisodiy tizim davrida iqtisodiyotda va Respublikamiz aholisi uchun qimmatli qog'ozlar (aksiya, veksel kabilar) va fond bozori degan tushinchalar mutlaqo begona bo'lib, ushbu iboralarni ishlatgan odamlar va mutaxassislariga shubha bilan qaralgan.

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng esa vaziyat tubdan o'zgarib Mamlakatimiz Prezident iva Hukumati tomonidan olib borilayotgan "Davlat tasarrufidan chiqarish, o'ususiylashtirish, hususiy biznesni qo'llab – quvvatlash, rivojlangan xorijiy davlatlar sarmoyalarini jalb etishga qaratilgan iqtisodiy siyosat" natijasida qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va uni rivojlantirish borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi.

YA'ni Respublikada keng ko'lamda boshlangan xususiylashtirish jarayoni QQB ni ya'ni fond birjalarini rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ushbu jarayonlar shakllanishining yaqin tarixiga nazar solsak 1991 yilda qabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va xussisiylashtirish to'g'risida" gi qonunda asosan yopiq turdagi AJ lar ko'zda tutilgan edi. (1 - bosqich)?!

1994 yilning yanvar oyida "O'zbekiston Respublikasida davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida" gi Prezident Farmonining chiqarilishi Respublikada fond bozorining rivojlanishida muo'im hadam bo'ldi. – Chunki bu Farmonda davlat korxonalarini

ochihq turdagi AJ larga aylantirish – Davlat tasarrufidan chiqarishning bosh yo'nalishi sifatida qaralishi, ularaksiyalarning bir qismi majburiy tarzda erkin savdo ga qo'yilishi belgilab qo'yilgan edi. Shu sababli xozirgi kunda minglab fuqarolarimiz aksiyadorlarga aylanib o'z devidentlarini olmoqdalar va AJ larni boqarishda bevosita ishtirok etmoqdalar.

Shuningdek xozirgi kunda fond bozorini (Fond birjalarni) tashkil etish va rivojlantirishga alohida e'tibor berilib, ularga turli imtiyoz va huquqlar berilgan.

Endi bevosita Fond birjalari to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak ularning qimmatli qog'ozlarning alohida uyushgan bozori ekanligi Ushbu birjalarning bozori infra tuzilmasining nixoyatda muxim bo'g'ini ekanligi bilinadi.

Fond birjalari – real kapitalning rivojlantirishni aks ettirgan holda ularning o'sishiga ko'p jihatdan yordam beradi. Ular faoliyati QQ larni sarmoyadorlarning keng qatlami ichida tarqatilishini ta'minlaydi. Bu esa jamiyatning katta qismining moddiy ahvolining yaxshilanishiga ko'maklashadi. YA'ni ular sarmoyalarining bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa oqib kirishini, ularning eng istiqbolli sohalarda to'planishini ta'minlaydi. Bundan tashqari turli korxonalar, xo'jalik tarmoqlari va sohalarni bozor nuqtai nazaridan qiyoslashga yordam beradi. Shuningdek fond birjalari bozor o'zgarishlari yo'liga qadam qo'ygan yosh mustaqil davlatlar hayotida, ularning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Demak QQB, Fond birjalari – Iqtisodiyotni xususiyatlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish, iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini rivojlantirish va aholining bo'sh pul mablag'larini iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlariga jalb etishda kata o'rin egallar ekan. Bunday sharoitda fond birjasi QQ ni tashkil etuvchi boshlang'ich omil nuqta bo'lib xizmat qiladi.

4. Toshkent RFB si, uning funksional va tarkibiy bo'linmalari (tuzilmalari) .

Respublikamizda dastlab 1991 yil may oyida «Toshkent» tovar xom ashyo birjasi tashkil etildi. 1992 yilning oxirida “Toshkent” birjasi negizida – “Toshkent” O'zbekiston Respublikasi tovar – fond birjasi tashkil etilib uning tarkibida “fond” bo'limi tashkil etilgan. Respublikada jadal sur'atlar Bilan amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayoni natijasida alohida fond birjasini tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8 apreldagi Farmoniga muvofiq “Toshkent” fond birjasi tashkil etildi. 1995 yilda Toshkent RFBning Samarqand, Buxoro va Andijon xududiy filiallari keyinchalik esa respublikaning barcha viloyatlarida uning filiallari tashkil etildi.

Respublikaning amaldagi qonun hujjatlarida fond birjasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Fond birjasi – bu qimmatli qog'ozlar bir maromda muomilada bo'lishining zaruriy shart – sharoitlarini ta'minlash, ularning bozor bahosini (qimmatli qog'ozlarning talab va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni) belgilash va ularga doir ma'lumotlarni keragicha tarqatish, QQ bozori qatnashchilarining kasb

mao'oratini yuqori darajada saqlab borish faoliyatining aloxida sohasi bo'lgan tashkilotdir.

O'tgan davr mobaynida ushbu birja Respublika iqtisodiyotidagi xususiylashtirish jarayonida yetakchi o'rin egallab bu yo'nalishdagi yagona tashkilot xisoblanadi. U nafaqat Respublikamiz balki MDX va dunyo miqyosidagi yirik birjalardan xisoblanadi.

1996 yilda "Toshkent" Respublika fond birjasi yevrosiyo fond birjalar federatsiyasiga qo'shildi. Bu xalqaro tashkilotning qarorgohi Istanbul shahrida joylashgan.

1998 yil bahorida Toshkent RFB tomonidan "QQlar listingi to'g'risidagi nizom"ni, qabul qildi. 1994 – 199 yillar mobaynida savdolar hajmi doimiy ravishda o'sish tamoyiliga ega bo'ldi.

Misol uchun 1994 yilda ushbu birjada tuzilgan bitimlar o'ajmi 310 mln. So'mni, sotilgan aksiyalar soni 200 000 donani tashkil etgan bo'lsa 2000 yilning boshiga bitimlar o'ajmi 5,2mlrd. So'mni, sotilgan aksiyalar soni esa 8.7. mln. donani tashkil etgan.

"Toshkent" Respublika fond birjasining Tashkiliy tuzilmasi.

1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi
2. Taftish komissiyasi
3. Kuzatuv kengashi
4. Boshqaruv
5. Boshqaruv raisi
6. Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari
 - Texnikaviy ta'minot boshqarmasi
 - Birja tizimlari xizmati
 - Orgtexnikadan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish
 - Aloqa xizmati
 - Ekspert taxliliy boshqarma
 - Ekspert kotirovka xizmati
 - Tahliliy xizmat
 - Metodologiya xizmati
 - Ekpert kotirovka komissiyasi*
 - Intizom komissiyasi*
- 7 Moliya boshqarmasi
 - Huquqiy boshqarma
 - Axborot boshqarmasi
 - Nashriyot xizmati
 - Ommaviy axborot vositalari bilanishlash xizmati
 - Tashqi aloqalar xizmati
 - Ishlar boshqarmasi

Nizolar bo'yicha komissiya

8 Boshqaruv raisining o'rinbosari

Savdoni tayyorlash va o'tkazish boshqarmasi

Bitimlarni ro'yxatga olish va rasmiylashtirish boshqarmasi

XIF Lar dasturlariga xizmatlar ko'rsatish bo'limi

Aksiyadorlar, birja a'zolari bilan o'zaro hamkorlik qilish va sho''ba xo'jalik jamiyatlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi.

Malaka komissiyasi.

Savollar:

- 1.Fond birjasi bozor infratuzilmasining muhim muassasasi sifatida nimalarni bilasiz?
- 2.Toshkent RFBsi, uning funksional va tarkibiy bo'linmalari (tuzilmalarini aytib bering?)
- 3.Birja ishini boshqarish tushunchasi?

Ma'ruza 5

Mavzu: Brokerlik idoralari va brokerlik xizmati va hisob-kitob qilish yo'llari.

Reja

1. Brokerlik idoralari, brokerlik joyi tushunchasi, ularga birja savdolariga ruxsat etish tartibi.
2. Birja brokerlari va mijozlarining o'zaro munosabatlari, ularga beriladigan buyruq turlari.
3. Bahslarni xal etish tartibi va jazo choralari.
4. Bitimlarni ro'yxatga olish va rasmiylashtirish.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. T.R.To'xtaboev. "O'zbekistonda birja savdolarining rivoji va istiqbollari" TDIU "O'quv qo'llanma" T-2007 yil. (34-40 betlar)
2. I.Butikov. "Qimmatli qog'ozlar bozori" "O'quv qo'llanma" T: "Konsauditinform" -2001 yil 42, 45 boblar (308-316, 340-348 betlar).
3. YO. Abdullaev "Qimmatli qog'ozlar"
Savol va javoblar. Toshkent "Mehnat" -1997 yil.
4. "Birjevaya deyatelnost" (Teksto' leksiy) Tosh DAU-2002 god.
5. "Birja" iqtisodiy gazetasi.

1. Brokerlik idoralari, brokerlik joyi tushunchasi, ularga birja savdolariga ruxsat etish tartibi.

Bizga ma'lumki birjalarda tashkil etiladigan savdo jarayonida faqat birja a'zolari va unda qatnashish uchun maxsus ruxsati bo'lganlar ishtirok etishlari mumkin.

Misol uchun har-bir fond birjasi odatda birja a'zoliciga kirish, a'zolkni to'xtatish, birja a'zolicigi maqomidan mahrum etish masalalari birja haqidagi nizom asosida amalga oshiriladi.

Ushbu birja a'zolari o'rtasida brokerlar (brokerlik firmalari) asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Bunda:

Brokerlik idoralari (firmalari) quyidagicha ta'riflanadi – Brokerlik firmasi birjada o'z joyiga ega bo'ladi va birjada savdolar bo'yicha mijozlar o'rtasida vositachilik vazifasini amalga oshiradi.

Birjadagi brokerlik joyi deganda -fond birjasi o'zining to'la huquqli a'zosiga yaratib berishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar yig'indisi tushuniladi. Ushbu imkoniyatlarning eng asosiysi –birja maydonchasida qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan, yoki mijozlar hisobidan va ularning topshirig'iga ko'ra xarid qilish yoki sotish imkoniyatidir.

Amaldagi qonunchilik xujjatlariga asosan brokerlik joylari (misol uchun "Toshkent" RFB da) nomallum muddatga sotib olinadi va unga birja tomonidantalablarga to'liq rioya qilingani holda faoliyat ko'rsatadilar. Bunda ular birjalarga ular tomonidan belgilangan miqdorda a'zolik badallari to'lab boradilar.

Alohida ta'kidlash lozimki brokerlik joylari – Bevosita birja savdolari orqali sotilishi va sotib olinishi, sotib olingan brokerlik joylarini ijaraga berishga o'am ruxsat etiladi. Chunki har-qanday birjada brokerlik o'rinlari cheklangan miqdorda bo'lib, birjalarning movqelaridan kelib chiqqan holda ularga ya'ni brokerlik joylariga bo'lgan talab yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Yuqori movqega ega bo'lgan birjalardagi brokerlik joylariga bo'lgan talab ham katta bo'ladi, sababi har-qanday brokerlik firmalari bunday birjalardan joy sotib olishi ular faoliyatining samarali bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Brokerlarning birja savdolariga kiritilishi

Fond birjasining maxsus litsenziyaga ega bo'lgan professional a'zolari (ishtirokchilari) ya'ni brokerlarning birja savdolariga kiritilishi va qimmatli qog'ozlar bilan savdo operatsiyalarida ishtirok etishlariga Birja tizimida tashkil etiladigan muhim bo'linmalardan hisoblangan "Malaka komissiyasi" tomonidan berilgan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi. Buning uchun "Malaka komissiyasi" brokerlardan maxsus dastur asosida imtihon oladi.

Yangi savdo maydonchalari, shuningdek yangi savdo vositalari bilan savdo qilish joriy etilgan holatlarda brokerlar qo'shimcha ravishda imtihon topshiradilar.

2. Birja brokerlari va mijozlarining o'zaro munosabatlari, ularga beriladigan buyruq turlari.

Birja brokerlarning xaridorlar, mijozlar va qimmatbaho qog'ozlar sotuvchilari bilan o'zaro munosabatlari uzoq va qisqa muddatli xususiyatlarga ega bo'ladi.

Dastlabki holatda bu munosabatlar brokerlik xizmati ko'rsatish uchun ***shartnomalar bilan, ikkinchi vaziyatda esa topshiriq shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.***

Yana shuni nazarda tutish lozimki birja brokerlari nafaqat mijozlarning talabnomalari bo'yicha bitimlar tuzadi, balki ayrim ma'noda ular uchun maslahatchi va ularning ishonchli boshqaruvchisi ham hisoblanadilar.

Birja savdolarida qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotish uchun topshiriq shartnomalarini tuzishda birja savdolarining qoidalari nazarda tutilgan bo'lib andozalashtirilgan xususiyatga ega bshlgan buyruqlar yoki topshiriqlar asosiy o'rin tutadi. Bunday buyruqlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

- **“Bozor buyrug'i”** – Bu muayyan tovarni QQ ni (qimmatbaho qog'ozlarni) eng foydali joriy narx bo'yicha xarid qilish yoki sotish uchun buyruq.

- **“Limitli buyruq”** – Bu QQ ni maxsus kelishilgan narxlarda yoki eng foydali narxlarda yoki eng foydali shartlarda xarid qilish yoki sotish uchun buyruq. Limitli buyruqda kelishilgan narx doimo joriy sotish narxidan yuqori bo'ladi.

- **“Stop buyruq”** – Brokerga QQ larni narxlar buyruda aytilgan darajaga yetgan vaqtda xarid qilish yoki sotish uchun beriladigan buyruq. Bu shuni anglatadiki “Bufer narxi” ga erishish bilanoq bu buyruq avtomatik ravishda bozor buyrug'iga aylanadi.

- **“Bufer limitli buyruq”** – Brokerlarga QQ larni narxlar buyruqda aytilgan darajaga yetgan vaqtda xarid qilish yoki sotish uchun buyruq. YA'ni bufer narxiga erishish bilanoq ushbu buyruq avtomatik ravishda “Limitli buyruqqa aylanadi.”

- **“Kunlik buyruq”** – Faqat mijoz tomonidan ko'rsatilgan savdo kunida amal qiladigan buyruq.


- **“Ochiq buyruq”** – Mijoz uni bekor qilmagunga qadar amal qiladigan buyruq.

- **“Ko'lamli buyruq”** – Mijozning brokerga bir vaqtning o'zida turli shartlardagi bir necha limitlangan buyruqlarni qatorasiga bajarish buyrug'ini anglatadi.

- **“Muqobil buyruq”** – Mijozning u yoki bu darajadagi QQ larni xarid qili va sotish topshirig'ini anglatadi.

- **“O'tkazma buyruq”** – Bu bir turdagi QQ larni sotishdan tushgan tushumlardan boshqa qimmatli qog'ozlarni xarid qilishni ko'zda tutadi.

- **“Hammasi yoki hech narsa buyrug'i”** – Mijozning qimmatli qog'ozlar turkumini butunlay sotish yoki xarid qilish topshirig'ini anglatadi. Agar broker mazkur shartni bajara olmasa buyruq avtomatik ravishda bekor bo'ladi.



3. Bahslarni xal etish tartibi va jazo choralari.

Savdolar jarayonida tuzilgan bitimlarni ijrosini ta'minlash, shuningdek brokerlarning o'zaro va mijozlar bilan yuzaga kelgan bazi baxsli masalalar Birja tizimida tashkil etilgan "Nizolar bo'yicha komissiya" tomonidan ko'rib chiqiladi va hal etiladi.

Mazkur komissiyani ng asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- savdolarni tayyorlash va o'tkazish jarayonida brokerlar o'rtasida, brokerlar bilan birja xizmatchilari o'rtasida yuzaga kelgan baxslarni ko'rib chiqish;
- Shartnomaviy munosabatlarda yuzaga kelgan nizoli holatlarni ko'rib chiqish va hal etish;
- Birjaning ichki kelishuvlarini tuzish va bajarish bilan bog'liq bo'lgan nizoli masalalrni hal etish;

Bir so'z bilan aytganda brokerlarning birjaning qolgan a'zolari va raxbariyati bilan munosabatlar va nizoli vaziyatlar birjaning tarkibiy tuzilmasi hisoblangan komissiyalar tomonidan tartibga solib turiladi.

Amaldagi qonunchilik, mijozlarning tijoriy manfaatlari, birja boshqaruvi qarorlarini buzganlik, birja tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida haq to'lamaganlik, a'zolik badallarini kiritishni kechiktirganlik, xarid qilingan brokerlik joydan bir yil davomida savdo operatsiyalarini amalga oshirmaganlik kabilar uchun **brokerlik firmalari va brokerlarga nisbatan quyidagi jazo choralari qo'llaniladi:**

1. Birja savdolaridan vaqtincha chetlatish;
2. Jarimalar solish;
3. Qayta shahodatlashga jo'natish;
4. Birja a'zolari safidan o'chirish kabi qator jazo choralari mavjud.

4. Bitimlarni ro'yxatga olish va rasmiylashtirish.

Fond birjasidagi bitim savdo sessiyasi jarayonida tomonlarning og'zaki roziligi asosida ro'yxatga olingan va boshmakler tomonidan qayd etilgan vaqtdan boshlab u tuzilgan hisoblanadi.

Broker tomonidan mijozning topshirig'iga asosan bitimni amalga oshirilgandan so'ng **sotuvchi quyidagilarni** taqdim etishi lozim:

1. QQ ning mavjudligi haqidagi kafolatnomani;
2. Bitimni tuzgan broker tomonidan imzolangan bitimni ro'yxatga olish varaqasini;
3. Bitimni tuzgan broker tomonidan imzolangan oldi-sotdi o'artnomasini;

Xaridor esa quyidagilarni:

1. Tuzilgan bitm summasini to'lash haqidagi kafolatnomani;
2. Sotuvchi broker tomonidan imzolangan bitimni ro'yxatga olish varaqasiga va oldi-sotdi shartnomasiga imzo qo'yadi.

Agarda tomonlarning birortasi bitim va shartnomalarni rasmiylashtirishdan bosh tortsa, uning harakati birja savdolari qoidalarini buzgan deb baholanadi va tegishli tartibda jazoga tortiladi.

Birja bitimi tuzilganidan va oldi-sotdi shartnomalari imzolanganidan so'ng broker –unga topshiriq bergan mijozga belgilangan shakl va tartibda hisobot taqdim etadi.

Bitim va shartnomalar tegishli muddat va qoidalar asosida birjaning xodimlari tomonidan rasmiylashtiriladi.

Birjada bitim tuzgan tomonlar unga vositachilik yig'imini tulaydilar. Yig'im Brokerlik idorasi va mijoz urtasidagi shartnomaga (kelishuvga) asosan ularning biri tomonidan to'lanadi.

Biroq amaldagi tartibga binoan to'lov muddati va tartibi buzilgan holatlarda birja tomonidan barcha e'tirozlar mijozga emas balki brokerlik idoralariga bildiriladi. Shu sababli ushbu jarayonda asosiy mas'uliyat brokerlik idoralariga aniqroq qilib aytiladigan bo'lsa brokerlar zimmasiga yuklatiladi.

Savollar:

1. Brokerlik idoralari, brokerlik joyi tushunchasi?
2. Birja savdolariga ruxsat etish tartibi?
3. Birja brokerlari va mijozlarining o'zaro munosabatlari, ularga beriladigan buyruq turlari qanday bo'ladi?

3. Bahslarni xal etish tartibi va jazo choralarini aytib bering?
4. Bitimlarni ro'yxatga olish va rasmiylashtirish qanday o'tkaziladi?

Maruza № 6
Mavzu: Birja ishi
Reja

1. Birja ishi tashkil etish
2. Fond birjasining tashkiliy asoslari
3. Xorijdagi tovar birjasining faoliyati
4. Mexnat birjasi faoliyati va vazifalari

1. Birja ishini tashkil etish

Birja va brokerlik idoralari, odatda keng doiradagi faoliyat turlarini amalga oshiradi. Avvalo ular savdo bitimlarini tuzish, ulgurji savdoni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha juda ko'p xildagi vositachilik xizmatlarini bajaradilar. Odatda ular katta xajmda nashriyotchilik faoliyatini olib boradilar. Birja byulletenlari, qo'llanmalar, meyoriy xujjatlar va boshqalarni chiqaradi.

Birja ishini boshqarish va tashkil etish uning Ustaviga muvofiq amalga oshiriladi. Birja o'z boshqaruvini tuzilishini, shakli va uslublarini mustaqil belgilaydi.

Birja ustavida quydagilar belgilab beriladi.

- birjaning nomi va turi
- birjaning manzilgoxi
- Birja ishi soxasi va maqsadi
- Ustav fondining miqdori, muassasalar tomonidan fondga ulushlar kiritilishining tartibi va muddatlari.
- Daromadni taqsimlash va mo'ljallangan zararlarni koplash tartibi.
- Birja muassasalari va azolarning mulkiy javobgarligi
- Birjaning boshqaruv idoralari, ularning tashkil etish tartibi va ularning vakolatlari.
- Birja savdo sotigi qoidalarini ishlab chiqish va qabul qilish tartibi.
- Birja azoligiga qabul qilish, azolikni vaqtincha to'xtab turish va to'xtash tartibi, birja azolarining xuquq va majburiyatlari.
- Birjaning qayta tiklash, tashkil etish va tugatish tartibi.
- Birja azolarining (aksionerlar, ishtirokchilar) umumiy yigilishi.

Mustaqil davlatlar kengashi, shu jumladan O'zbekistondagi va chet eldagi jismoniy va yuridik shaxs xisoblanganlar, quydagi talablarni bajargandagina ular birja azolari bo'lishlari mumkin.

(birja va Birja ishi to'g'risidagi 1992 yil 2 iyul O'zbekiston Qonunining 15 moddasida ko'rsatilgan.)

Birinchidan, agar shu shaxslarga tadbirkorlik bilan shugullanish konunda man qilinmagan bo'lsa.

Ikkinchidan, agar ular birja Ustavi va birja Kengashi azolariga qo'yilgan talablarga javob bersa.

Uchinchidan, agar azolikka kiruvchilar zaruriy badallarni yoki brokerlik o'rnini uchun to'lovlarni to'lay olsalar.

Birja azoligiga kirish faqat birja Kengashining roziligi bilan bo'ladi.

Birja ichki ishlarni boshqarish va boshqa subektlar bilan xuquqiy tashqi aloqalarni qaratish uchun birjaning raxbar tashkiloti yaratiladi.

Ular quyidagilardan iborat

Birja qo'mitasi, kengashi yoki birja ustavida ko'rsatilgan boshqa tashkilotlar (boshqaruv idorasi, boshqarma, taftish komissiyasi, arbitraj, xisob palatasi, ro'yxat komissiyasi). Ularning faoliyatlari maxsus meyoriy xujjatlar, Ustav, birja qarorlari va qo'llanmalari bilan tartibga solinadi.

2.Fond birjasining tashkiliy asoslari

Klassik ko'rinishdagi fond birjasi – professional ishtirokchilar tomonidan uyushtirilgan, eng yaxshi qimmatli qog'ozlarning doimiy ravishda amal qilib turuvchi ulgurji bozori bo'lib, u savdo-sotiqning hamda qimmatli qog'ozlar va brokerlarga savdolariga ruxsat berishning alohida o'ziga xos bo'lgan tartib tamoyillariga egadir.

Fond birjasining asosiy o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- birjaga faqat muayyan talablarga javob beradigan eng yaxshi qimmatli qog'ozlarga ruxsat etiladi;
- birja savdolariga fond birjasi a'zolarining maxsus muassasasiga aloqador bo'lgan shaxslarga ruxsat etiladi;
- qimmatli qog'ozlar bilan savdolar qilishning muvoqqat tartibi va andozalashtirilgan savdo-sotiq tadbirlarining mavjudligi;
- savdo-sotiqni muayyan joyda markazlashtirish;
- birjaning o'zini-o'zi tartibga solishi, ya'ni birjani boshqarishni birja savdolari ishtirokchilarining o'zlari amalga oshiradi.

Fond birjalari real kapitalning rivojlanishini aks ettirgani holda ularning o'sishiga ko'p jihatdan yordam beradi. Ular qimmatli qog'ozlarni sarmoyadorlarning keng qatlami ichida tarqalishini rag'batlantiradi, bu esa iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyatni katta qismining moddiy ahvolini yaxshilanishiga ko'maklashadi.

Fond birjalari bozor o'zgarishlari yo'lga qadam qo'ygan yosh mustaqil davlatlarda alohida ahamiyatga ega. Mazkur mamlakatlarda birjalar iqtisodiyotni xususiyalashtirish va davlat tasarrufida chiqarishning asosiy vositasi hisoblanadi.

1991 yilning bahorida O'zbekiston Xukumatining qarori bilan respublikamizning eng yangi tarixida birinchi "Toshkent" O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi tashkil etildi. Mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar va tezkorlik bilan boshlangan xususiyalashtirish jarayoni sababli o'sha yilning o'zida ya'ni avgust oyida ushbu birja negizida "Toshkent" O'zbekiston Respublikasi universal tovar-fond birjasi tashkil etildi va ushbu birjaning tarkibida QQlar bozorining dastlabki rasmiy tashkiloti – Fond bo'limi ochildi. 1992 yilning yanvar oyidan boshlab ushbu bo'lim tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan muntazam ravishda savdo qilish ishlarini boshlagan. Respublikada «Birjalar va Birja ishi

to'g'risida" gi qonuni qabul qilinib mazkur qonun talablaridan kelib chiqqan holda 1992 yilning oxirida "Toshkent" birjasi "O'zbekinvest" –O'zbekiston moliya-investitsiya kompaniyasi aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirildi. Tashkil etilgan yangi birja tarkibida ham fond bo'limi saqlanib qoldi. YUqorida ta'kidlanganidek Respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining rivojlanib borishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yilgi maxsus Farmoniga muvofiq 1994 yil 8 aprelida uning negizida «Toshkent» fond birjasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra fond birjasi - bu qimmatli qog'ozlar bir maromda muomilada bo'lishining zarur shart sharoitini ta'minlash, ularning bozor bahosini belgilash va ularga doir ma'lumotlarni keragicha tarqatish, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish faoliyatining alohida sohasi bo'lgan tashkilotdir.

Fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar quyidagi asosiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

- birja savdolarining ishtirokchilari shuningdek birja xizmatchilari tomonidan qonunchilik va birja qoidalariga qat'iy amal qilinishi;
- birja savdolarining barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratilishi;
- birja savdolari o'tkazilishini oldindan belgilangan joy va vaqt Bilan reglamentlash yo'li orqali ushbu savdolarining reglamentlanishini ta'minlash;
- tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligi;
- amalda yuzaga kelgan talab va taklif asosida narxni belgilash;
- birja savdolariga ruxsat etilgan qimmatli qog'ozlar haqidagi ishonchli va to'liq ma'lumotlarni zudlik Bilan e'lon qilish hamda birja savdolari ishtirokchilarini birja bitimlari narxleri to'g'risida xabardor qilish;
- qonun yo'li bilan talab etiladigan birja axborotini taqdim etish va e'lon qilish kabilardir.

3.Xorijdagi tovar birjalari faoliyati.

Buyuk Britaniya va Fransiya xukumatlari xamkorlikda

Xozirgi paytda onlayn mexnat birjasini yaratishni rejalashtirmoqda. Shu kunlarda Britaniya va Fransiya xukumatlari oldingi umumevropa mehnat birjalaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi yangi onlayn xizmati yaratilishi xaqida elon qiladi. Xozircha faqat inglizlar, qaysi Parijdan va lilda ishlamoqchi bo'lganlarga yordam beriladi. Ularga Fransiya bandlik xizmati tomonidan yordam beriladi. Janubig'sharqidan va Angliyaning Londondan ish topmoqchi bo'lgan fransuzlarga veb sayt orqali bo'sh ish joylarda bilan tanishib, shart-sharoitlar xaqida kelishib olinadi.

Birinchi marta yevropada, ishchi kuchida foydalanish davlatlar miqiyosida Internet yordamida xal qilinmoqda.

Kelasi oyda ikala mamlakat xukumatlari bunday amaliyotni kengaytirish xaqida takliflarni yevropa ittifoqiga taqdim etishadi.

Shu yilning kuzida «ishchilar vakansiyalar bayoni» tashkil etiladi va unga 300 000 ga yaqin vakansiya taqdim etiladi.

Fransiyada 2003 ilning noyabr oyida 9,6% gacha pasaydi, oktyabrda esa 1,7 % tashkil etgan.

Fransiya Mehnat Vazirligi malumotlariga ko'ra mehnat birjalarida ruyxatga olingan ishsiz axolini soni noyabr oyida 2,624 mln kishini tashkil etgan. Bu esa 2000 yilning may oyigacha ishsizlar soni ko'rsatkichidan 7 mingga yoki 0,3% kamdir.

Zamonaviy mehnat birjasi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni ro'yxatdan o'tkazadi.

Mehnat birjalari ishsizlik arizalariga binoan ularga mos ish izlaydi, kadrlar, agentligi esa ish beruvchilarning talabiga ko'ra ularga ishchi kuchi topib beradi.

Nodavlat mehnat birjalarda ish qidiruvchilarni ishga joylashtirganligi uchun ulardan pul olishadi, kadrlar agentligiga esa ish beruvchilar to'lashadi.

Ananaviy mehnat birjasi oxirgi o'n yillik mexnat bozoridagi jismoniy mexnatga bqlgan talabning yuqori malakali va odiy ishchilarga bo'lgan defitsitning o'zgaras bo'lib saqlab qolishi bilan ajralib turadi. Aynan shuning uchun o'zining aqliy salohiyati evaziga pul ishlab topmoqchi bo'lgan kishilarga davlat yoki nodavlat mexnat birjalari tomonidan yordam beriladi.

Bunday kishilarga internetdagi mehnat birjalari yoki ayrimlar uni virtual mexnat birja yoki bo'lmasa elektron birjalari ularga yordamchi kelishadi. Odatda elektron mehnat birjalari 2 ta malumotlar bazasini olib boradi.

Elektorn mehnat birjalari xam odatdagi asosiy funksiyalarni bajaradi. YAniy ishchi kuchi taklifini ro'yxatga olish, ishga joylashtirishda vositachilik qilish. Biroq mehnat bozorida aqliy salohiyatga asoslangan ishchi kuchi taklifi ancha yuqori. YAni bular savdo, moliya, reklama, Internet va kompyuter texnologiyalari, turizm va meditsina soxalaridagi ishchilardir.

4.Mehnat birjasi

Mehnat birjasi-ishchi, xizmatchi va korxona egasi o'rtasida ishchi kuchini sotish va sotib olish bo'yicha kelishuvini amalga oshirishda muntazam vositachi sifatida, ish kuchi yollashda ishchilar va korxona o'rtasida vositachilik vazifasi bajaruvchi tashkilot. Mexnat birjasi ishsizlikni xisobga olib boradi vash u bilan birga ish beruvchi va ish qidiruvchilarni uchrashtiruvchi tashkilotdir.

Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida mehnat birjalari zamonaviy xisoblash texnikasi bilan taminlangan kuchli axborot markazli ko'rinishiga ega. Mehnat birjasida korxona va tashkilotlarda mavjud bush o'rinar xaqidagi axborot mujassamlashgan. Bu axborot xam majburiy, xam ixtiyoriy ravishda kelib tushishi mumkin.

Mexnat birjalari tomonidan berilgan tavsiyanomalar tadbirkorlar uchun majburiy bo'lmay, ular ishga olishda rad javobini berishlari xam mumkin.

Ikkinchi tomondan esa ,ishsiz shaxsning ishga yo'llanma olishidan bosh tortishi uni ishsizlik bo'yicha nafaqa olish xuquqidan maxrum qilishi mumkin.

Mehnat birjasining faoliyati xalqaro mehnat tashkilotning konvensiyalarda xalqaro xuquqiy reglamentlashga ega bo'lgan. Ulardan biri davlat agetliklarini yaratish, mehnat vositachiligi buyicha daromad olishni maqsad o'lib olgan xususiy idoralarni yo'q qilishni ko'zda tutadi. Rossiyaning turli xududlarida davriy ravishda tashkilotchilari tomonidan "Bo'sh o'rinlar birjasi", "yoshlar birjasi" deb nomlanuvchi tadbirlar o'tkaziladi. Ammo fuqarolarni ishga joylashtirilishi, ishsizlarni ruyxatga olish, ularga nafaqa tayinlash, ishchilarni qayta uqitish jarayonini tashkil etish, yangi ish o'rinlarini yaratuvchi kichik biznesni qo'llab quvvatlash vazifalarini doimiy ravishda axolini bandligini davlat xizmati amalga oshiradi. Bu xizmat ish beruvchilarning sugurta badali, byudjet mablag'laridan iborat katta moddiy jamgarmaga ega. Ishsizlik soni ortirishi bilan bandlik xizmatiga bo'lgan talab ham ortib bormoqda.

Davlat tizimi ajratilayotgan kamligi sababli o'ziga yuklatilgan masalalarni hal qilishga qurbi yetmaydi. Shuning uchun har bir shaxs ishga joylashayotganda birinchi navbatda o'ziga ishonib, davlat tomonidan minimal qo'llab-quvvatlanadi. Ishsizlikni yuqori suratlarda bilan o'sishi maxaliy sharoitlar xisobiga olingan xolda kurashish xududiy dasturlarini ishlab chiqishini va amalga tadbiriq etishni talab qiladi.

Savollar:

1. Birja ishi tashkil etishi?
2. Fond birjasining tashkiliy asoslari aytib bering?
3. Xorijdagi tovar birjasining faoliyati qanaqa?
4. Mehnat birjasi faoliyati va vazifalarini aniqlab bering

Ma'ruza № 7

Mavzu: Depozitariy mazmuni va mohiyati Reja

1. Investitsiya muossasalari va ularning umumiy xususiyatlari.
2. Depozitariy tushunchasi va tizimi.
3. O'zbekistonda depozitariylar tizimi va uning vazifalari.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. T.R.To'xtaboev. "O'zbekistonda birja savdolarining rivoji va istiqbollari" TDIU "O'quv qo'llanma" T-2007 yil. (98-107 betlar)
2. I.Butikov. "Qimmatli qog'ozlar bozori" "O'quv qo'llanma" T: "Konsauditinform" -2001 yil IV bo'lim 22, 28 boblar, V bo'lim 43 bob.
3. YO. Abdullaev "Qimmatli qog'ozlar"
Savol va javoblar. Toshkent "Mehnat" -1997 yil.
4. "Birjevaya deyatelnost" (Teksto' leksiya) Tosh DAU-2002 god.
5. "Birja" iqtisodiy gazetasi.

1. Investitsiya muossasalari va ularning umumiy xususiyatlari.

Biz depozitariylar faoliyatini o'rganishimizdan oldin avvolom bor investitsiya muossasalari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishimiz lozim bo'ladi. Chunki depozitariylar ham shu investitsiya muossasasi hisoblanadi.

Demak investitsiya muossasasi nima? Investitsiya muossasasi – bu qimmatli qog'ozlar bilan o'z faoliyatini asosiy faoliyat sifatida amalga oshiruvchi QQB ning professional ishtirokchilaridir.

Qimmatbaho qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari ya'ni Investitsiya muossasalari qatoriga quyidagi tashkilotlar kiradi:

- ***Investitsiya vositachilari*** – bu QQB da brokerlik va dilerlik faoliyatini amalga oshiruvchilardir. ...

- ***Investitsiya maslahatchisi*** – bu maslahat faoliyati bilan shug'ullanuvchi muossasalardir. Ular QQB faoliyatini tahlil qilish, uning rivojlanish istiqbollarini belgilash, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, emitentlar va sarmoyadorlarga turli yo'nalishdagi maslahat xizmatlarini ko'rsatadilar. Shuningdek ...

- ***Investitsiya kompaniyalari*** – bu qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularga mablag' sarflash, qimmatbaho qog'ozlarni qz nomidan va o'z hisobidan olish – sotish ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslardir. ...

- ***Investitsiya fondlari*** – bu jismoniy va yuridik shaxslar mablag'larini to'plovchi hamda foyda olish, aksiyadorlar xatarini kamaytirish maqsadida ushbu mablag'larini fond nomidan QQ larga, bank hisob raqamlariga va omonotlariga joylashtiruvchi tashkilotlardir. ...

- ***Boshqaruv kompaniyalari*** – bu Investitsiya muossasasi tomonidan uning ixtiyoriga topshirilgan, lekin boshqa shaxsga tegishli bo'lgan QQ lar, ularga investitsiya qilinadigan pul mablag'lari va QQ larni muayyan vaqt mobaynida mukofot evaziga o'z nomidan ishonchli boshqarishni amalga oshiruvchi tashkilotlardir. ...

Investitsiya muossasalarining asosiy faoliyat turi QQB da faoliyat ko'rsatishligi, faqat litsenziya asosida (yuridik shaxslarga 3 yil, jismoniy shaxslarga 5 yil muddatga) faoliyat yuritishligi, ular rahbarlarining har yili majburiy ravishda attestatsiyatan o'tishi shartligi, ularni tashkil etish uchun ayrim cheklovlar ya'ni Ustav, zahira, qushmcha fondlarining belgilanagn talab darajasida bo'lishi lozimligi kabilar ***ularga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar hisoblanadi.***

2. Depozitariylar tushunchasi va tizimi.

YUqorida ta'kidlanganidek depozitariylar ham investitsiya muossasasi hisoblanadi va u quyidagicha ta'riflanadi. **Depozitariy** – bu qimmatli qog'ozlarni saqlash va QQ larga bo'lgan huquqlarni hisobga olish faoliyatni amalga oshiruvchi investitsiya muossasasidir.

Dastlab Depozitariy so'zining asosini tashkil etayotgan so'zlarni tushunib olaylik. **Depozit** – bu ma'lum shartlar bilan saqlash uchun bankga yoki omonat

kassasiga berib qo'yilgan pul yoki qimmatli qog'ozlardir. ... **Deponent** – bu depozitga pul yoki qimmatbaho qog'ozlarni qo'ygan shaxs. ...

Demak Depozitariy faoliyati deganda qimmatli qog'ozlarni saqlash va ularga tegishli bo'lgan huquqlarni hisobga olib borish xizmati tushunilar ekan. ...

Ularning ***o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari shundan iboratki-*** ularning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari bo'yicha bajaradigan vazifalari bankning pul mablag'lari bo'yicha bajaradigan vazifalariga taxminan o'xshab ketadi. Biroq bankdan farqli o'laroq depozitariy o'z deponentining aktivlriga to'g'ridan – to'g'ri egalik qilish huquqiga ega emas. Misol uchun bank ... depozitariy bilan deponent o'rtasidagi munosabatlar faqat shartnoma asosida amalga oshiriladi. Depozitariy majburiyatlari bo'yicha deponentning qimmatli qog'ozlariga mas'uliyat yuklatilmaydi, ya'ni depozitariy saqlash uchun qabul qilib olgan qimmatli qog'ozlardan u yoki bu maqsadda (misol uchun garovga qo'yish ...)foydalana olmaydi.

Depozitariylar o'z faoliyatida quyidagi hisob turlarini qo'llaydi:

- **depo hisobi** – bu deponent bilan tuzilgan depozitariy shartnomasini, depozitariy tomonidan bajarish uchun zarur bo'lgan, depozitariyning hisob registrlaridagi yozuvlar to'plamidir.

- shaxsiy hisob – bu bir emissiya qimmatli qog'ozlarni saqlash hisobini yuritish uchun yuritiladigan hisob.

- **subhisob** – bu depozitariyga yoki uchunchi shaxsga nisbatan ishlatiladigan deponentning majburiyatlari asosida qimmatli qog'ozlarning hisobini yuritish uchun ishlatiladigan hisob.

- **loro hisob** – bu nominal saqlovchiga depozitariy tomonidan ochiladigan depo hisobi.

- Depo hisobidan ko'chirma – bu depozitariy tomonidan deponentga beriluvchi va depo hisobida saqlanuvchi QQ larga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatdir.

Depozitariylarda qimmatli qog'ozlar **ikki xil usulda** saqlanadi.

1. **Ochiq usul** – bunda individual belgilar (nomer, seriya, razryad) ga **ega bo'lmagan** bir turdagi va ma'lum miqdordagi qq lar to'plamining hisobini deponentning topshirig'iga binoan depo hisobida saqlash uslubi tushuniladi.

2. **YOpiq usul** – bunda individual belgilarga **ega bo'lgan** har-qanday qimmatli qog'ozlarning hisobini deponentning topshirig'iga binoan uning hisobida alohida saqlash tushiniladi.

3. O'zbekistonda depozitariylar tizimi va vazifalari.

Bizning Respublikamizda depozitariylar tizimi **ikki pog'onali** tartibda o'rnatilgan.

1. **pog'ona** – Davlat unitar korxonasi ko'rinishida tashkil etilgan markaziy depozitariy hisoblanadi. U mamlakat miqyosida qimmatbaho qog'ozlarni saqlash, ular huquqlarini hisobga olish va harakatining yagona hisobini tashkil etadi.

2. **pog'ona** – Xududiy va nodavlat korxonalar bo'lib, ularning muassislari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar shu jumladan xorijiy sub'ektlar ham bo'lishi mumkin. Ular bevosita markaziy depozitariyga bo'ysindilar va u bilan vakillik aloqalarini o'rnatishga majbur hisoblanadilar.

Birinchi pog'ona sifatida 1994 yil 8 iyunda tashkil etilgan “VAQT” milliy depozitariysi faoliyat ko'rsatadi **ikkinchi pog'ona** sifatida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda tashkil etilgan xududiy bo'linmalar faoliyat ko'rsatadi. Milliy depozitariy Davlat mulk qo'mitasi va Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan va Respublik Adliya vazirligidan ro'yxatga olingan Ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Markaziy depozitariyga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- qimmatli qog'ozlarning naqdsiz nashrlarini saqlash;
- davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan ob'ektlarning naqd qimmatli qog'ozlarini, ularni sotib olgunga qadar saqlash;
- naqd va naqdsiz qimmatli qog'ozlarga nisbatan davlat huquqining hisobiniyuritish;
- depozitariyning vakillik hisob-raqamlarini yuritish;
- birja va birjadan tashqari savdolar ishtirokchilariga savdolarida tuzilgan bitimlar bo'yicha qimmatli qog'ozlarning yetkazib berilishini ta'minlash;
- naqd va naqdsiz qimmatli qog'ozlarning muomilaga chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni saqlash;
- O'zbekiston Respublikasi hududida norezidentlar tomonidan, shuningdek chet el bozorlarida O'zbekistonning rezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga olish;
- Depozitariylar tizimida qimmatli qog'ozlarning harakati haqidagi axborotni yig'ish va tartibga solish.

Savollar:

1. Investitsiya muassasalari va ularning umumiy xususiyatlarini aytib Bering?
2. Depozitariy tushunchasi va tizimi qanday?
3. O'zbekistonda depozitariylar tizimi va uning vazifalari?

Maruza №8

Mavzu: Listing tadbiri. Kotirovka.

Reja

1. Qimmatli qog'ozlarning birja savdolariga qo'yilishi tartibi.
2. Listing tushunchasi. Qimmatli qog'ozlarga listing toifalari bo'yicha qo'yiladigan talablar.
3. Delisting tushunchasi va uning mohiyati.
4. Toshkent RFB da listing tadbirini o'tkazish amaliyoti.
5. Qimmatli qog'ozlar narxining kotirovkasi.

1. Qimmatli qog'ozlarning birja savdolariga qo'yilishi tartibi va toifalanishi.

An'anaviy tarzda fond birjasiga qator yillar mobaynida zararsiz ishlab kelishi, barqaror moliyaviy ahvoli, katta aylanma mablag'lari, muomilaga chiqariladigan qimmatli qog'ozlarning miqdori kabi ko'rsatkichlar bilan boshqalardan farq qiluvchi qimmatli qog'ozlarga ruxsat etiladi. Albatta bu barcha fond birjalarida birja savdolariga kiritiladigan qimmatli qog'ozlarni tanlab olishning bir xil sifat va miqdoriy mezonlari mavjudligini bildirmaydi..

Qimmatli qog'ozlar birja ro'yxatida ularning likvidlik darajasi va emitentlarning moliyaviy ahvoli ular faoliyatining muddatlariga qarab o'zgarish chegaralariga ega. Qimmatli qog'ozlar ekspertizasi va uni o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan mezonlar ular emitentlarining tashkiliy-huquqiy shakli hamda fond bozoridagi funksional faoliyatida fond boyliklari oltita asosiy guruhga bo'linadi. Bular:

1. Ekspertizadan o'tgan va ekspert kotirovka komissiyasidan tomonidan «listing» toifasiga kiritilgan qimmatli qog'ozlar.
2. Ekspertizadan o'tgan, lekin ayrim ko'rsatkichlariga ko'ra listing talablarini qondira olmaydigan va «listing arafasida» toifasiga kiritilgan qimmatli qog'ozlar.
3. Ekspertizadan o'tmagan va «listingdan tashqari» toifasiga kiritilgan qimmatli qog'ozlar.
4. Ekspertiza qilimasdan birja savdolariga ruxsat etilgan O'zbekiston Respublikasining Davlat qimmatli qog'ozlari.
5. Listingdan tashqari ekspertiza qilinmasdan birja savdolariga ruxsat berilgan xususiy lashtirilgan korxonalarining aksiyalari.
6. Brokerlik joyi to'g'risidagi nizomda belgilangan tartib va shartlarda sotiladigan brokerlik joylari.

Xorijiy emitentlarning qimmatli qog'ozlari ham birja rasmiy ro'yxatiga kiritilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarni birja rasmiy ro'yxatiga kiritish va undan chiqarish to'g'risidagi qaror Ekspert-kotirovka komissiyasi tomonidan ekspertiza o'tkazish natijalari asosida qabul qilinadi.

Qimmatli qog'ozlarni birja rasmiy ro'yxatiga kiritish haqida salbiy qaror qabul qiligan hollarda emitent faqat davlat soliq nazorati idorasiga keyingi hisobot davri balansini topshirganidan keyin xujjatlarni ko'rib chiqish uchun takror taqdim etishi mumkin.

Ekspert kotirovka komissiyasi tomonidan ijobiy qaror qabul qiliganida qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yilishiga ruxsat etiladi.

2.Listing tushunchasi. Qimmatli qog'ozlarga listing toifalari bo'yicha qo'yiladigan talablar.

Qimmatli qog'ozlarning likvidlik, bozor faolligi, emitentning barqaror moliyaviy – xo'jalik ahvoli bilan tafsiflanuvchi qimmatli qog'ozlar toifasiga kiritish qimmatli qog'ozlar listingi deb nomlanadi. O'z navbatida listing korxonasi deb qimmatli qog'ozlar listing tadbiridan o'tgan, listing tadbirlarini qondiradigan va birja rasmiy ro'yxatiga listing toifasi bo'yicha kiritilgan korxonalarga aytiladi. Qimmatli

qogozlar birja rasmiy ruyxatiga listing korxonalari toifasi bo'yicha kiritish uchun emitet yoki u vakolat bergan vositachi Listing kommissiyasiga listing to'grisida belgilangan shakl bo'yicha ariza beradi. Doimiy faoliya ko'rsatuvchi listing kommissiyasi listing korxonalarini qimmatli qogozlarni tanlab olish va listinga kiritish uchun maxsus tashkil etiladi.

Ariza birlamchi listingi xam shuningdek qo'shimcha immisiya listingiga ham berilishi mumkin. Birja rasmiy ruyxatiga kiritilgan listing korxonalarining qimmatli qogozlari A, V, S va D guruxlarga bo'linadi.

Immitentlarga ularning rasmiy ruyxatiga listing toifasi bo'yicha kiritilishi uchun quydagi talablar quyiladi.

Ochiq aksionerlik jamiyatlari uchun

1. Korxonaning faoliyati ni ko'rsatish muddati
2. To'langan ustav fondi.
3. Qimmatli qogozlarning qo'shimcha emissiyasi.
4. Umumiy aktivlar.
5. Aksiyadorlarning soni.
6. Zararsiz ishlal.

Aksiyadorlik- tijorat banklari uchun

1. Bankning faoliyat ko'rsatish muddati.
2. To'langan ustav fondi.
3. Qimmatli qogozlar emissiyasi.
4. Zararsiz ishlash.

Investitsiya fondlari uchun

1. Faoliyat ko'rsatish muddati
2. To'langan ustav fondi
3. Qimmatli qogozlar emissiyasi
4. Zararsiz ishlash

Qimmatli qogozlar listingi va unga ilova qilinadigan xo'jjatlar birjaning Listing kommissiyasi tomonidan 30 taqvim kunida chiqiladi.

Qimmatli qogozlarni birja rasmiy ruyxatiga kiritish to'grisidagi qaror Listing komissiyasining xulosasidan so'ng birjaning boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

3. Delisting tushunchasi va uning mohiyati

3.1. Delisting-emitentning qimmatli qogozlarini birja rasmiy ruyxatining tegishli toifasidan chiqarish yoki butunlay ruyxatdan chiqarish. Delistingning uch xil turi mavjud, Muvaqqat delisting, doimiy delisting va mutloq delisting.

3.2. Birja quydagi sabablarga ko'ra emitentning qimmatli qogozlarini birja rasmiy ruyxatiga bo'lishini vaqtinchalik to'xtatib qo'yishi mumkin:

- davlat organining korxonani yopish to'grisidagi qaror
- D guruxi ko'rsatkichlaridan birining pasayishi
- moliyaviy axvolning yomonlashuvi

-birja bilan tuzilgan shartnoma shartlarining listing korxonasi tomonidan buzilishi

-listinga kiritilmagan korxona tomonidan birja savdolari qoidalarining buzilishi
-rasmiy birja ruyxatidan korxona tomonidan reestrni yuritish qoidalarining buzilishi.

4.“Toshkent RFBD Listing tadbiri

Emitet—u vakolat bergan vositachi tomonidan listinga kiritish uchun ariza berish.

Birjaning devonxonasida hujjatlarni rasmiylashtirish va ularni **Ekspert**-kotirovka kommissiyasiga topshirish.

Ekspert-kotirovka kommissiyasi tomonidan hujjatlarning dastlabki tekshirishilishi va ularni ekspert-taxliliy boshqarmaga ekspertizadan o'tkazish uchun topshirish.

Ekspert-taxliliy boshqarmada moliyaviy-xo'jalik faoliyatining taxlil qilinishi va rasmiy xulosani birja boshqaruviga qimmatli qogozlarni birja rasmiy ruyxatiga kiritish.

Birja boshqaruvi tomonidan yakuniy qarorni qabul qilish quddati rasmiy xujjatlar kelib tushgan vaqtda boshlab bir hafta.

Qabul qilingan qaror to'grisida rasmiy xabar.Boshqaruv majlisi qtkazilgan kundan boshlab 3 kun ichida emitentga jo'natiladi.

Salbiy qaror qabul qilinganda korxona keyingi xisobot davri uchun moliyaviy hisobotlarini davlat idoralariga topshirgandan keyingi qimmatli qogozlarni takroriy ekspertizaga topshirish va ularni 10 bank kuni ichida RFB ga topshirish.

Emitentni birja rasmiy ruyxatiga kiritish haqida ijobiy qaror qabul qilinganda

1 Listing korxonalari toifasi bo'yicha RFB va emitet o'rtasida shartnoma tuziladi.

2 Listing arafasidagi korxonalar toifasi bo'yicha-birja rasmiy ruyxatga kiritilgan.

Listinga kiritilmagan korxonalar toifasi bo'icha birja rasmiy ruyxatiga kiritilganlik xaqidagi axborot.

5. Qimmatli qog'ozlar narxining kotirovkasi.

Ekspert-kotirovka kommissiyasi ishining muhim qismi qimmatli qogozlar narxini kotirovkalash sanaladi.Fond birjasida kotirovkalash-bu birjada tuzilgan bitimlar,shuningdek bozor konyukturasini tavsiflovchi boshqa bozor axborotining narxini aniqlash va belgilashdir.

Kotirovka birja kunining natijalari buyicha hamda savdo jarayonida (joriy yoki oraliq kotirovka)amalga oshirilishi mumkin.

5.1Fond birjasida kotirovkaning roli bitimlarning turiga qarab har xil bo'ladi.

Bitimlar, yuqorida taqidlanganidek, kassa bitimlariga yoki muddatli bitimlarga bo'linadi.

5.2.Kotirovka fond birjasining Ekspert-kotirovka kommissiyasi tomonidan avvalgi birja savdosining natijasiga ko'ra amalga oshiriladi. Kotirovka o'rnini quydagi chizma orqali namoyish etish mumkin



5.3.Fond birjalarida tashqari qimmatli qogozlar narxlarining kotirovkasi dilerlar tomonidan birjadan tashqari bozorida amalga oshirilishi mumkin.Narxlarni emitentlarning o'zlari tomonidan kotirovka qilinishi taqiqlanadi.

Savollar

- 1.Qimmatli qog'ozlarning birja savdolariga qo'yilishi tartibi qanday?
- 2.Listing tushunchasi. Qimmatli qog'ozlarga listing toifalari bo'yicha qo'yiladigan talablari?
- 3.Delisting tushunchasi va uning mohiyati qanaqa?
4. Toshkent RFB da listing tadbirini o'tkazish amaliyoti?
5. Qimmatli qog'ozlar narxining kotirovkasi?

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy

1. Butikov I. «Qimmatli qog'ozlar bozori» T. «Konsauditinform» 2001 yil
2. Korotkov A.V. Tovarnoe birji i birjevoy analiz: Uchebnoe posobie rukovodstvo po izucheniyu dissiplino', testo', zadachniki, uchebno'ye programmo' Ekonomika. M.: MESI, 2004 yil.
3. Gryaznovoy A.G.Korneevoy R.V.Galanova V.A. «Birjevaya deyatel'nost» Moskva «Finanso' i statistika» 1995 god.
4. Galanova V.A.Basova A.I. «Birjevoe delo» Moskva «Finanso' i statistika» 1998 god

Qo'shimcha

1. Mualliflar guruhi. O'zbekistonda biznes keyslar: O'zbekiston Respublikasidagi biznes ta'limotida «Keys-stadi» uslubining qo'llanilishi. O'quv-qo'llanma. – T.: Akademiya, 2006.
2. Golanova V.A., Basova I.A. Ro'nok i senno'ye bumagi. Izd. 2-e pererab i dop. Moskva.: Finanso' i statistika, 2004 god.
3. Sinitso'na N.M. Ro'nok senno'x bumag. Uchebnoe posobie. N.Novgorod, 2004 god.
4. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi ilmiy ommaviy iqtisodiy nashr 2003 y 6-7 son
5. Bozor pul va kredit. Bank xodimlari va ishbilarmonlar jurnali 2003 y 7.8.9. son.

Saytlar.

www.msu.ru	Moskovskiy Gosudarstvenno'y universitet (ekonomicheskij fakultet)
www.rsute.ru	Moskovskaya ekonomicheskaya akademiya im. G.V.Plexanova (ekonomicheskij fakultet)
www.tsue.uz	Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
www.osu.edu	Oxayo universiteti, iqtisodiyot fakulteti (AQSh)
www.umde.edu	Merilend universiteti, agrar kolledji (AQSh)
www.timacad.ru	K.A.Timiryazeva nomidagi Moskva davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, iqtisodiyot fakulteti.
www.tsau.uz	Toshkent Davlat agrar universiteti.

aholash mezonlari

REYTING NAZORATINI BAHOLASH REJASI

¹	Nazorat turlari	Nazorat usullari	O'tkazi- ladigan muddati, hafta	Baholash uchun bel- gilangan saralash ball	Baholash uchun bel- gilangan maksimal ball
I. JORIY NAZORAT-40 ball					
1	1-JN 1-5 mavzular bo'yicha (mashqlar bajarish)	Uy ishlarini tekshirish, og'zaki so'rov	5 -hafta	11	20
2	2-JN 6-12 mavzular bo'yicha (mashqlar bajarish)	Uy ishlarini tekshirish, test	12 -hafta	11	20
II. ORALIQ NAZORAT -30 ball					
1.	1-ON 1-5 mavzular bo'yicha	YOzma	5 -hafta	9	15
2.	2-ON 6-12 mavzular bo'yicha	YOzma	12- hafta	9	15
III. YAKUNIY NAZORAT-30 ball					
1.	YAkuniy nazorat		Semestr-ning oxirgi 2 haftasida	17	30

MUNDARIJA:

1. Birja paydo bo'lish tarixi	4
2. O'zbekiston respublikasining birja va Birja ishi to'grisida qonuni. Birja qonunlari va qoidalari.	9
3. Birja tovari. Birjalarda olib boriladigan savdo jarayoni.	14
4. Birjaning tarkibi va Birja ishini boshqarish.	19
5. Brokerlik idoralari va brokerlik xizmati va hisob kitob qilish yo'llari.	22
6. Birja ishi.	27
7. Depozitariy mazmuni va moxiyati.	32
8. Listing tadbiri. Kotirovka.	35

